

OMMAVIY OFERTA

1. UMUMIY QOIDALAR

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi nomidan ish yurituvchi Vazir o‘rinnbosari X.O. Quvondiqov hamda «Yagona integrator UZINFOCOM» MCHJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor E.I.Gimranov “Suv hisobi” AT operatorlari (keyingi o‘rinlarda – **“Tizim operatorlari”** deb yurituvchi) bir tomonidan va Suv istemolchisi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi asosida ushbu Ommaviy ofertani boshqa biror-bir shart, istisno va kelishuvlarsiz qabul qiluvchi (akseptlovchi) yuridik yoki jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda – **“Foydalanuvchi”** deb yurituvchi) ikkinchi tomondan, birgalikda **“Taraflar”** deb yuritiluvchilar, har biri amaldagi qonunchilikka va ta’sis hujjatlariga asosan ushbu Ommaviy ofertani tuzishda barcha vakolatiga ega ekanligini tasdiqlab, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-358, 369, 703-708-moddalari, 12.10.2022 yildagi O‘RQ-793-son “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi, 29.04.2004 yildagi O‘RQ-611-II-son “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi, 29.09.2022 yildagi O‘RQ-792-son “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 iyundagi 273-son qarori va aloqaning telekommunikatsiya kanallari orqali xizmat ko‘rsatishga taalluqli bo‘lgan amaldagi boshqa qonun hujjatlariga **amal qilib**, Tizim operatorlari:

- mazkur Ommaviy ofertaning maqsadlari uchun foydalanish imkoniyatini beruvchi, unga mulk huquqi va boshqa huquqlarga asosan tegishli bo‘lgan «Suv hisobi” axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda – «Suv hisobi” AT) ga ega ekanligini;
- «Suv hisobi” AT orqali, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda, suvdan foydalanuvchilar uchun suv yetkazish tadbirlarni amalga oshirishda ta’milot va xizmat ko‘rsatish yuzasidan shartnomalarni elektron rasmiylashtirish;
- «Suv hisobi” ATning elektron hujjatlarida E-IMZO xizmatidan foydalanish;
- «Suv hisobi” AT orqali statistik, tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish va elektron hujjat almashinuvi imkoniyatlarini yaratadi.

2. TERMIN VA TA’RIFLAR

Ommaviy oferta – ushbu hujjat Tizim operatorlari va foydalanuvchilar o‘rtasida belgilangan tartibdagi elektron raqamli imzo kalitidan foydalangan holda ofertani akseptlash orqali tuziladi;

Shaxsiy kabinet – «Suv hisobi” AT bilan ishslash uchun zarur bo‘lgan barcha asosiy vositalar mayjud bo‘lgan, ro‘yxatdan o‘tkazilgan foydalanuvchilar uchun bo‘lim (ko‘p funksiyali veb-interfeys). Buyurtmachi ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng, «Suv hisobi” ATning avtorizatsiyalashtirilgan foydalanuvchisi bo‘ladi;

Elektron raqamli imzo (ERI) – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo. ERI qog‘oz ko‘rinishdagi hujjatdagi qo‘l bilan qo‘yilgan imzo bilan bir xil yuridik kuchga ega;

Elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, uni identifikasiyalash imkonini beradigan boshqa elektron hujjat rekvizitlariga ega bo‘lgan hujjat, shu jumladan EH. Elektron hujjat, agar uni elektron hujjat aylanishi ishtiroychilarining yopiq kaliti yordamida imzolansa, qog‘oz ko‘rinishdagi hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Elektron hujjat aylanishi – Reglament talablari asosida bitimlar tuzish, hisob-kitob qilish, rasmiy va norasmiy yozishmalar almashinuvi uchun «Suv hisobi» AT orqali elektron hujjatlarni shakllantirish, jo‘natish, qabul qilish, tasdiqlash va saqlash bo‘yicha jarayonlar majmui.

Uchinchi shaxslar – amaldagi qonunchilik va ushbu ofertada boshqa narsa nazarda tutilmagan bo‘lsa, Elektron hujjat aylanishi operatori va Buyurtmachidan tashqari boshqa shaxslar;

Shaxsga doir ma’lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot.

Tizim operatorlari – ma’lumotlarga ishlov berishni amalga oshiruvchi davlat organi. Tizim foydalanuvchilari o‘rtasida shartnomaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish uchun mas’ul bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda «Suv hisobi» ATni ishlab chiquvchi, ishga tushirish, texnik va dasturiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi “Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator UZINFOCOM” MCHJ;

Foydalanuvchi – «Suv hisobi» ATdan ro‘yxatdan o‘tgan, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, yuridik shaxs (qonun hujjatlari ko‘ra, ommaviy-huquqiy tashkilot va boshqalar) yoki jismoniy shaxs «Suv hisobi» AT xizmatlaridan foydalanuvchilari hisoblanadi.

3. OMMAVIY OFERTA PREDMETI

3.1. Tizim operatorlari mazkur, Ommaviy oferta akseptlangan taqdirda, ushbu Ommaviy oferta doirasida Foydalanuvchiga <https://suvhisobi.uz/> manzili orqali suv iste’molchilari uchun xizmat ko‘rsatish yuzasidan shartnomalarni elektron rasmiylashtirish, oferta shartlarini bajarish doirasida elektron hujjat aylanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini oladi.

3.2. Tizim operatorlari, ushbu ommaviy oferta bo‘yicha, Foydalanuvchining «Suv hisobi» ATga istalgan vaqtida kirishni ta’minlash majburiyatini oladilar.

3.3. «Suv hisobi» ATdan foydalanish hududi: O‘zbekiston Respublikasi.

3.4. Foydalanuvchining tizimga kun davomida (24/7 rejimda) uzluksiz kirishi ta’minlanadi. Texnik va profilaktika ishlarini olib borish maqsadida tizimga kirish cheklangan vaqt bundan mustasno (bunday holatlar «Suv hisobi» ATning asosiy sahifasida 24 soatdan kam bo‘lmagan holda xabar qilinadi).

3.5. «Suv hisobi» AT orqali taqdim etilayotgan barcha xizmatlar Foydalanuvchi tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan va «Suv hisobi» ATda ushbu xizmatlar mantiqiga xos bo‘lgan bevosita maqsadlardan boshqa maqsadlarda foydalanishi mumkin emas.

3.6. Foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tish (id.egov.uz orqali), ushbu Oferta shartlari bilan tanishish jarayonidan o‘tadi, rozilik bildirilgach «Suv hisobi» ATga kirish imkoniyati taqdim etiladi. Oferta Foydalanuvchiga «Suv hisobi» ATdan butun davr mobaynida foydalanish uchun amal qiladi, biroq tizim foydalanuvchisining STIR raqami o‘zgargan taqdirda, Foydalanuvchi «Suv hisobi» ATda Oferta bilan qaytadan tanishadi va qayta roziligidini bildirish jarayonidan o‘tadi.

3.7. «Suv hisobi» ATdan foydalanish muddati, ushbu Oferta shartlariga muvofiq, «Suv hisobi» ATning tegishli ma’lumotlari va funksionallaridan foydalanish imkon ochilgan sana va vaqt dan boshlanadi.

4. ASOSIY SHARTLAR

4.1. Tizim operatorlari «Suv hisobi» ATdan foydalanish jarayonida quyidagi holatlarda javobgar emas:

- Foydalanuvchi tomonidan tizimda noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilishi;
- Foydalanuvchi tomonidan ERI kalitini saqlash va undan foydalanish qoidalari buzilganda;

- Tizim operatorlarini ERI kalitining sertifikatiga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida, jumladan, qayta tashkil etilishi, tugatilishi to‘g‘risida o‘z vaqtida va to‘g‘ri habardor qilmaslik;

4.2. Tizim operatorlari:

- tizimda shakllantirilayotgan, qabul qilinayotgan va saqlanayotgan elektron hujjatlarni nazorat qilish, shuningdek, ularni qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirishga;
- elektron hujjatlarning axborot tizimida saqlanishi va shu holda tizimning boshqa ishtirokchilariga yetkazilishiga mas’ul hisoblanadi.

4.3. Ushbu ofertani amalga oshirishda Foydalanuvchi:

- davlat, konstitutsiyaviy va ijtimoiy tizimni buzishga, O’zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning siyosiy mustaqilligi va davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligini buzuvchi, urish, terrorchilik, zo’ravonlik, milliy ustunlik va diniy nafratni, irqchilik va uning turlari (antisemitizm, fashizm)ni targ’ib qiluvchi, O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining sha’ni, qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy xayotiga aralashishga qaratilgan ma’lumotlar va pornografik mazmundagi materiallarni jo‘natish va tarqatish, shuningdek jinoiy va boshqa javobgarlikni keltirib chiqaruvchi boshqa harakatlarni amalga oshirishga;

- kompyuter viruslari va ularga tenglashtirilgan boshqa komponentlardan tarkib topgan har qanday ma’lumotlarni jo‘natish;

- intellektual mulk egasining ruxsatisiz, to‘liq yoki qisman egalik yohud boshqa huquq bilan himoyalangan materiallarni jo‘natishga haqli emas.

4.4. «Suv hisobi” ATga 5 yil oldin yuklangan yoki unda shakllantirilgan ma’lumotlarni avtomatik tarzda arxiv papkalarga joyланади.

4.5. Tizimga yuklanadigan har bir elektron hujjatning hajmi **10 megabaytdan oshmasligi** belgilanadi.

4.6. Foydalanuvchi quyidagilarni kafolatlaydi:

- shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashda shaxsiy ma’lumot subyektlarining O’zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlarini himoyalash sohasidagi amaldagi qonunchiligidida nazarda tutilgan barcha huquqlariga rioya etilishi;

- shaxsiy ma’lumotlarni joylashtirishda ularni qayta ishlashning barcha tamoyillari va shartlariga hamda O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidida nazarda tutilgan cheklov larga Foydalanuvchi tomonidan rioya etilishi.

5. OMMAVIY OFERTANI AKSEPTLASH

5.1. Tizim operatorlari ushbu Ofertani suvhisobi.uz manzili bo‘yicha e’lon qilishi (joylashtirishi) nomuayyan yuridik shaxslarga yo’llangan mazkur Ommaviy ofertani tuzish bo‘yicha ommaviy taklifi hisoblanadi.

5.2. Mazkur Ofertani tuzish orqali foydalanuvchi tizim operatorlariga oferta shartlarini bajarish maqsadida, amaldagi shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berishga, shu jumladan, ularni yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), ko‘chirish, foydalanish, ularni berish (tarqatish, taqdim etish), shuningdek tizim operatorlariga taqdim etilgan shaxsga doir ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etishga mazkur Ofertani tasdiqlash orqali rozilik beradi.

5.3. Tizim operatorlari Foydalanuvchining shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligi bo‘yicha O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq barcha zarur bo‘lgan choralarни ko‘rishini Foydalanuvchiga kafolatlaydi. Foydalanuvchi uning shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berishga roziligi (shu jumladan uchinchi shaxslarga ham) muddatsiz hisoblanadi.

5.4. Ushbu Ofertani tuzish, Foydalanuvchining mazkur Oferatga qo‘shilishi orqali, ya’ni ushbu Ofertani boshqa biror-bir shart, istisno va kelishuvlarsiz qabul qilgan (akseptlagan) holda amalga oshiriladi.

5.5. Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, ushbu hujjat Tizim operatorlarining ommaviy taklifidir. «Suv hisobi” AT foydalanish uchun suvhisobi.uz sahifasida ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘ldirib, tizim orqali ERI kaliti sertifikatidan foydalangan holda imzolash orqali Tomonlar oferta shartlarini so‘zsiz tan olishni qabul qiladilar.

5.6. Ushbu Ommaviy ofertaning 3-bobga muvofiq, Foydalanuvchining ushbu Ommaviy ofertani qabul qilishi «Suv hisobi» ATda belgilangan chegaralar doirasida elektron hujjat aylanish xizmatlarini ko‘rsatish ofertasi hisoblanadi.

5.7. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuniga asoslanib, Taraflar ushbu ofertani qog‘oz hujjatga tenglashtiradilar va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo‘lishiga kelishadilar.

6. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Taraflar O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va ushbu Oferta asosida huquqlar va majburiyatlarga ega bo‘ladilar hamda javobgar bo‘ladilar. Xususan, Tizim operatorlari quyidagi hollarda Foydalanuvchiga Tizimga kirishni/ulanishni tushuntirishlarsiz bekor qilishi huquqiga ega:

- qonun hujjatlari, ushbu ofertada ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra;
- vakolathi davlat organlari va adliya organlarining ko‘rsatmalariga muvofiq.

6.2. Jumladan, Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Tizim operatorlaridan ushbu Ommaviy oferta shartlari asosida xizmat ko‘rsatishni talab qilish;
- «Suv hisobi» ATdagi nosozliklar bo‘yicha Tizim operatorlariga murojaat qilish va unda elektron hujjatlar ayrboshlash masalalarida maslahat olish.

- «Suv hisobi» ATga sutka davomida uzlusiz va har kuni 24/7 rejimida (yigirma to‘rt soat, haftasiga yetti kun) kirish imkoniyatiga ega bo‘lish («Suv hisobi» ATda e’lon qilingan profilaktika va texnik ishlari olib borish vaqtin bundan mustasno).

6.3. Jumladan, Foydalanuvchi quyidagilarga majbur:

- «Suv hisobi» ATdan belgilangan tartibga muvofiq to‘liq va to‘g‘ri foydalanish;
- Rekvizitlar va/yoki yuridik manzil o‘zgarganligi to‘g‘risida Tizim operatorlarini 10 (o‘n) kun muddat ichida xabardor qilishi va shu bilan birga Foydalanuvchining shaxsiy kabinetidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida o‘zgartirishi. Aks holda, Tizim operatorlari, Rekvizitlar va/yoki yuridik manzilga kiritilmagan o‘zgartirishlar uchun javobgar bo‘lmaydi;
- Tizim operatorlariga Ommaviy oferta bo‘yicha majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar va hujjatlarni taqdim qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, shuningdek ushbu Oferta shartlariga amal qilish.

6.4. Tizim operatorlari quyidagi huquqlarga ega:

- Ofertaning 4.3-bandida ko‘rsatilgan holatlarda Foydalanuvchining tizimdan foydalanishini bir tomonlama to‘xtatish;
- kelib tushgan hujjatlarda zararli dasturlar, viruslar va boshqa ta’qilangan ma’lumotlar mavjud emasligini tekshirish;
- Foydalanuvchilarning tizim servislari kiruvchi Internet manzillarini saqlab qo‘yish, identifikatsiyalash uchun tizimga kiruvchi brauzer va boshqa platformalardagi sessiyaviy ma’lumotlarni saqlab qo‘yish;
- «Suv hisobi» ATni uzliksiz ishlashini ta’minalash uchun boshqa har qanday himoya choralarini ko‘rish;
- Foydalanuvchi Ommaviy oferta bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda, uni kamida 1 kun oldin xabardor qilib, ushbu ofertani amal qilishini to‘liq yoki qisman to‘xtatish;
- Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetiga elektron xabar jo‘natish yo‘li bilan oldindan ogohlantirib rejadan tashqari profilaktika va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rivoja qilish uchun «Suv hisobi» ATni modifikatsiya qilish yoki yangi talqinini chiqarish;
- Tizim operatorlari «Suv hisobi» ATga yangi xususiyatlar va funksional imkoniyatlar kiritish va/yoki mavjud xususiyatlar va funksional imkoniyatlarni o‘chirish.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Foydalanuvchilar va Tizim operatorlari ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishligicha bajarmaganligi uchun, agar bunday vaziyat taraflar oldindan bilishi, oldini olishi mumkin bo'lmasan yengib bo'lmas kuch favqulodda xususiyatga ega voqealar, ya'ni fors-major holatlari (suv toshqini, zilzila, yong'in, tabiiy ofatlar, xarbiiy operatsiyalar, blokadalar, davlat boshqaruvi organlarining ta'qiqi, pandemiya, epidemiya, aloqa va energiya ta'minotidagi uzilishlar va boshqalar) natijasida sodir etilgan bo'lsa tomonlar bir-birining oldida javobgar bo'lmaydilar.

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtida taraflar ushbu holatlari bartaraf etilguniga qadar ommaviy oferta bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

7.3. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

7.4. Agar ushbu bo'limda belgilangan holatlari 2 (ikki) oydan ortiq davom etsa, u holda «Suv hisobi» AT foydalanuvchilari tomonidan Ommaviy ofertani qabul qilish avtomatik ravishda rad etiladi. Ammo foydalanuvchi «Suv hisobi» AT ga kirish tiklangan paytdan boshlab Ommaviy oferta shartlarini qayta qabul qilish va ushbu Ommaviy oferta shartlarini qabul qilish huquqiga ega.

8. TOMONLARNING VAKOLATI

8.1. Foydalanuvchi «Suv hisobi» ATda ro'yxatdan o'tish sanasida ushbu Ommaviy oferta bilan qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash siyosatini qabul qilish bilan quyidagi kafolatlarni beradi:

- Foydalanuvchi Ommaviy oferta bilan belgilangan tartib-tamoyillarni qabul qilish va bajarish uchun to'liq huquq hamda vakolatga egaligi;

- Foydalanuvchi, fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy, yoki boshqa sud tomonidan protsesslarda ishtirok etish orqali ushbu Ommaviy oferta bilan belgilangan tartib-tamoyillarning buzilishi va boshqa Foydalanuvchilar hamda Tizim operatorlari faoliyatiga zarar yetkazmaslikka.

9. AMAL QILISH MUDDATI, OMMAVIY OFERTANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

9.1. Oferta shartlariga va tarif shartlariga muvofiq «Suv hisobi» ATdan foydalanish muddati tugashi bilan (kirish muddati tugashi);

9.2. Tizim operatorlari istalgan vaqtida "suvhisobi.uz" da joylashgan ushbu Ommaviy oferta shartlariga o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritish o'zgartirishlarni Tizim operatorlari saytida e'lon qilish yo'li bilan xabardor qilib, o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish yoxud Ommaviy ofertani yangi tahrirda tasdiqlashga haqli.

9.3. Ofertaga kiritayotgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar qonun va me'yoriy hujjalarga kiritilgan o'zgartirishlar bilan bog'liq bo'lsa, ushbu rasmiy hujjalarga o'zgarishlar kuchga kirishi bilan bir vaqtida kuchga kiradi.

9.4. Ommaviy ofertaning yangi tahririda boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, Mazkur Ommaviy ofertaning yangi tahriri suvhisobi.uz manzilida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

10. NIZOLARNI HAL QILISH

10.1. «Suv hisobi» AT imkoniyatlaridan foydalanish davrida, agar Foydalanuvchilar Ommaviy oferta talablaridan kelib chiqqan holda o'z huquqlari buzilgan deb hisoblasa, ular Tizim operatorlariga yozma va elektron shaklda yozma da'vo yuborishlari mumkin.

10.2. Yozma da'vo quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- talabnomasi mohiyati;

- huquqiy va xaqiqiy asoslari to'g'risidagi ma'lumot;

- da'voning asosiy dalillari.

10.3. «Suv hisobi” AT foydalanuvchilaridan biri boshqa tarafdan yozma talabnoma olgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun davomida nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilmasa, u holda da'vo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

11. OMMAVIY OFERTA TALABLARIGA RIOYA QILISHDAN BIR TOMONLAMA BOSH TORTISH

11.1. Quyida e'tirof etilgan holatlardan biri yuzaga kelganida, Tizim operatorlari Foydalanuvchilarga elektron tarzda xabar yuborish orqali ushbu Ommaviy oferta tartib-tamoyillariga rioya etishdan bir tomonlama bosh tortishga va foydalanuvchilarni «Suv hisobi” ATdan foydalanish huquqlarini to'xtatishga haqli, jumladan:

- Foydalanuvchilar tomonidan Ommaviy oferta tartib-tamoyillari buzilganda;
- «Suv hisobi” ATdan foydalanish jarayonida foydalanuvchi va Tizim operatorlari o'rtasida belgilangan qoidalar, talablar va majburiyatlarining buzilganda.

12. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Ommaviy oferta elektron shaklda tuzilgan va «Suv hisobi” AT foydalanuvchilari tomonidan ixtiyoriy ravishda qabul qilinadi. Foydalanuvchi Ommaviy ofertadan «Suv hisobi” ATning istalgan ish vaqtida foydalanishi mumkin.

12.2. Tomonlarning xech biri mazkur Oferta bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa tomonning yozma shaklda rozilgisiz biror bir uchinchi tomonga berib yuborilishi mumkin emas.

12.3. Ofertada nazarda tutilmagan shartlar mavjud bo'lsa tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.